

MODAL SO'ZLAR MAVZUSINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

JDPI katta o'qituvchisi Z. Abduvaliyeva

Modal so'zlarni o'qitishda zamonaviy o'qitish usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, o'qituvchi muayyan modulni o'qitishda uning oson, to'liq o'zlashtirilishiga imkon beruvchi didaktik vositalar, texnologiyalar, metod turlaridan samarali foydalangan taqdiridagina dars samaradorligiga erishadi. Shuningdek, o'quv materiallari, mavzulari o'zi aloqador bo'lgan fanning eng so'nggi yutuqlarini o'zida mujassam qilishi nihoyatda zarur. Buning uchun o'qituvchidan ta'limga yangicha yondashish, rejalashtirish ishlarini olib borish, innovatsiyalarni tatbiq etish talab qilinadi. Ushbu tadqiqot xuddi shu yo'nalishga bag'ishlangan bo'lib, unda modal so'larning lisoniy-nutqiy xususiyatlari yuzasidan ilmiy adabiyotlarda berilgan tadqiqotlar bilan talabalarni yaqindan tanishtirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

So'zlovchining anglatilayotgan fikrga munosabatini (modal ma'noni) ifodalovchi so'zlar modal so'zlar deyiladi. Bunday munosabat fikrning aniqligi yoki noaniqligi nuqtayi nazaridan bo'ladi. Shunga ko'ra modal so'zlar ikki guruhga bo'linadi:

- 1) Fikrning aniqligini ifodalovchi modal so'zlar;
- 2) Fikrning noaniqligini ifodalovchi modal so'zlar.

Birinchi guruhdagi modal so'zlar fikrning rostligi, chinligini ifoda etadi: albatta, haqiqatan, tabiiy kabilar. Ayolsiz hovli, **tabiiy**, supurib-sidirilmagan bo'ladi. (V. G'ofurov). Bu kelayotganlarning ichida, **darhaqiqat**, Safarov bilan Samandarov ham bor ekan. (A. Q.) Fotima dunyoga kelib o'zi bilan shuqadar mehribon xushmuomala gaplashadigan odamlar ham borligin, bular, **haqiqatan**, uni qo'llashga kelishganini angladi. (P.T.) bu, **shubhasiz**, haqiqat (O.).

Ikkinchi guruhdagi modal soʻzlar fikrning gumonli, tasmolli, taxminiyligini ifodalaydi: balki, chamasi, ehtimol kabilar: Ahmadjon koʻchaga chiqdi. Shu payt uning koʻzlari hech qachon muloyim boqmagan, uning qoʻllari hech qachon birovni erkalab silamagan uning yuzi hech qachon yumshoq tabassumni bilmaganday koʻrinar, agar hozir uni xotini Xosiyatxon koʻrsa **balki**, qoʻrqib ketardi. (A.Q.) Bu ehtimol butun borligʻini zaharlaydi. (O.) hali yaxshilab surshtirganimzcha yoʻq. **Ajabmas**, biron kishi topilib qolsa. (R.F.)

Pedagogik texnologiyalar sohasidagi yangi izlanishlar bilan tanishish, oʻqitishning faol usullarini bilish va qoʻllay bilish har bir pedagog oldiga qoʻyayotgan zamon talablarining asosiylaridandir.

Dars jarayonida bir emas, bir nechta metodlardan foydalanish mumkin, ushbu metodlarning toʻgʻri qoʻllanishi mashgʻulotning ilmiy-nazariy samaradorligini oshiradi, oʻquvchi-talabalarni aqliy va ilmiy jihatdan faollashtiradi. Turli xil pedagogik vaziyatlarda oʻqituvchi va oʻquvchi-talabalarning faoliyati fikrlarining oʻzgarib, almashinib turishi, albatta, dars metodlarining oʻzgarishiga ham sabab boʻladi. Bu pirovard natijada har bir darsning boshqalariga oʻxshamagan shaklda, oʻziga xos tarzda tashkil etilishiga yordam beradi va oʻquvchi-talabalarda ushbu fanga qiziqish, yangiliklarni ilgʻab olishga intilish hissini uygʻotishga olib keladi.

Ayniqsa oily taʼlim bosqichida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy oʻqitish metodlari-intelektual metodlar, innavatsion texnologiyalardan foydalanish talabalarning mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarining rivojlanishiga, yetuk mutaxassis boʻlish uchun kerakli kasbiy fazilatlariga ega boʻlishga olib keladi. Kadrlarni shu tarzda tayyorlab borish taʼlimning quyi bosqichlari uchun yuksak pedagogik mahoratga ega oʻqituvchilarni, oʻz sohasining bilimdon kadrlari bilan taʼminlanishiga yordam beradi va bu oʻz-oʻzidan taʼlim sifatining yaxshilanishiga, samaradorlikning oʻsishiga olib keladi. Chunki maktabda fan asoslari oʻrganilsa, yaʼni umumiy taʼlim berilsa, oily taʼlimda talaba zamonaviy fanni oʻrganadi va ixtisoslik

bo'yicha ta'lim oladi. Shuning uchun ham oiliy maktabdagi metodlari bilimlarni yetkazish va anglashning usullari emas, balki fan taraqqiyoti jarayoniga tobora kirib borish, uning metodologik va g'oyaviy asosini ochish metodi hamdir.

Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, darslarda kommunikativ-nutqiy tamoyilni tatbiq etish, texnik vositalar: audio-video apparatlar, o'quv videofilmlaridan foydalanish, o'qituvchilarga darslarni texnik vositalar bilan to'liq ta'minlangan auditoriyalarda o'tkazish uchun to'liq shart-sharoit yaratish zarur. Biroq barcha o'zbek tili o'qituvchilarining ilmiy salohiyatini yuqori darajada deb bo'lmaydi. Bugungi kun o'qituvchisi uchun o'z sohasi bo'yicha chuqur nazariy bilimga ega bo'lishning o'zi yetarli emas u zamonaviy ta'lim shakllari, innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalana oladigan, muammolarni aniqlashga, g'oyalarni regeneratsiya qilishga, qarorlarni qabul qilishga qodir, pedagogik boshqarish uslublari va vositalarini yaxshi biladigan mutaxassis bo'lishi ham mumkin.

Fikrimizni muhtasar qilib shuni aytamizki, ta'lim metodi- o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati usuli bo'lsa, ta'lim metodikasi esa muayyan o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimini tavsiflaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbek tili grammatikasi. I tom, Toshkent-1975, 7-52
2. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1-qism, Toshkent-1980, 160-166
3. Tursunov U. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent-1992, 187-197
4. Abduazizov A.A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. T., 1994.
5. Nurmonov A. va b. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. "XXI asr avlodi", T., 2001.
6. Sayfullaeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Morfologiya. T., 2005.

